



SHASHMAQOM VA AN'ANAVIY IJROCHILIK MADANIYATI

Muallif: O. Amonov¹

Affiyatsiya: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "Musiqa ta'lifi va san'at" mutaxassisligi I- bosqich magistranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14513474>

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy musiqa san'atimiz, Shashmaqomning tuzilishi, an'anaviy ijrochilikdagi o'rni, uning tarbiyaviy imkoniyatlari va ijroviy xususiyatlari to'g'risida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy maqom, o'zlikni anglash, estetik did, ashula va cholg'u bo'limi, musiqiy an'ana, ijrochilik uslubi, musiqiy tayyorgarlik, musiqiy turkumlar.

Milliy ma'naviyatimiz, an'anaviy ijrochilik rivojlanishida milliy maqom alohida ahmiyatga ega. Zero, u milliy musiqa san'atining eng qadimiya va takrorlanmas asarlari sifatida xalq ommasiga keng tarqalgan, uning madaniy hayotida chuqur singib ketgan. Davrlar o'tishi, jamiyat rivojlanishi bilan ushbu san'at turiga, uning an'analariga, ijrochilik xususiyatlari bo'lgan munosabat, qiziqish hamda e'tibor kuchayib borgan.

Ayniqsa, Mustaqillik yillarda o'zbek milliy maqom san'atining noyob namunalarini o'zlashtirish, ijrochiligidan yanada takomillashtirish, keng targ'ib etish, uni asrab avaylash va rivojlantirish, ayniqsa yosh avlod qalbida milliy mumtoz san'atimizga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kamol toptirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3391-sonli Qaror muhim ahmiyatga ega bo'ldi. Qarorda "Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish" vazifasi qo'yildi [1].

"Shashmakom" XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilarini va musiqashunos olimlari tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda topganligi uchun "Buxoro Shashmakomi", deb yuritiladi. U professional musiqa namunasi bo'lib, yirik xajmga ega, murakkab tuzilishli, umumiyl soni 250 dan ziyod ashula, cholg'u asarlarni o'z ichiga olgan tizimli musiqiy majmuadir [2.248].

Maqomlarning cholg'u bo'limlarida bir xil nom bilan ataladigan cholg'u qismlari bo'lib, ularning ohanglari turlicha bo'lsa-da, doyra usullari bir hildir. Ular Tasnif, Tarje', Gardun, Muhammas va Saqil nomlari bilan mashhurdir

Buxoro «Shashmaqom»i "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" maqomlari o'zining nasr va mushkilot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning "Chor maqom"i (To'rt maqom), "Dugoh Husayniy" ning yettita yo'li, "Chorgoh"ning



oltita ijrochilik yo'li, "Shaxnozi Gulyor"ning oltita ijrochilik yo'li hamda "Bayot" yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijrosi mukammalashib bordi.

Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta'kidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o'ziga xos yo'nalishini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi "Panjgoh" maqomi kiritilgan. Shuning uchun avloddan - avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy boyligimiz sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg'ona, Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug' ma'naviy ne'mat sifatida qadrlanadi.

"Buxoro Shashmaqomi" ni idrok etish, o'rganish, undan zavq, ruhiy kuch-quvvat olish asrlar davomida "ustoz-shogird" an'anasi asosida amalga oshirib kelingan. Maqom tarixiga oid adabiyotlarda "Makom va maqom yo'lidagi asarlarni ta'lim tizimiga kiritish masalasi, ayniqsa jadidlarning diqqat markazida bo'lgan. Musiqiy - ma'rifiy faoliyatning namunasi sifatida Abdurauf Fitrat 1921-yil 10-avgustda Buxoro hukumati farmoni bilan 1-Sharq musiqa maktabini tashkil etdi. Bu maktabda bolalarning musiqiy ta'limi saboklari og'zaki musiqa-pedagogikasiga mansub-an'anaviy uslubda olib borilar edi. Musiqa maktabida Ota Jalol, Ota G'iyos, Domla Halim Ibodov, Usto Shodi, Xoji Abdurahmon kabi ustozlar makom va maqom yo'lidagi kuy-ashulalarni, ularning usullarini yosh talabalarga o'rgatishgan.

Mashxur xofiz-sozandalar maktabda murabbiy sifatida faoliyat ko'rsatib, o'zlarining musiqiy-ijrochilik faoliyatlarini pedagogik ishlari bilan uyg'un xolda amalga oshirishgan. Shu tariqa maqom ijrochiligi, milliy musiqamiz targ'iboti, shogirdlar tayyorlash vazifalari, ustozu-shogird an'analarida davom etdi. Sh. Soxibov, F. Shaxobov, M. Ashrafiy, M. Burxonov singari bo'Igusi katta sanatkorlar bu yerda ta`lim olishib, kelajakda ustoz - san` atkor darajasiga erishdilar" [2, 248-249].

Millatparvar ajdodlarimiz sa'y-harakati tufayli milliy maqom san'atimiz o'zligini saqlab qoldi, sayqallandi, takomillashib, milliy va umumbashariy qadriyat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Asrlar davomida an'anaviy ijrochilik, san'ati va madaniyati o'z milliy yo'nalishini saqlab qoldi. Bunda atoqli san'at darg'alarining mehnati beqiyosdir. Bu haqda turli risola va maqolalar yozilgan, ularning ijodi ilmiy tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganilgan. Bunday ishlar yosh avlod ma'naviy kamolotini o'ylab qilinayotgan xayrli ishlardan bo'lib, yoshlarimizni ma'naviy merosimizni qadrlashga, undan saboq olishga undaydi.

Xullas, "Shashmaqom" an'anaviy ijrochilik madaniyatining rivoj topishida, ustoz-shogirdlik qadriyatlari asosida ilmu-amaliyotini o'rganish borasida asrlar davomida maxsus shug'ullanuvchi mukammal kasbiy musiqa maktablari shakllangan, rivojlangan hamda takomillashib kelgan. Bugungi kunda esa yoshlarimiz xalqni an'anaviy ijrochilik namunalaridan bahramand etish, ustoz-shogird qadriyatlарини zamonaviy yondashuvlar asosida yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbekiston milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ - 3391-soni qarori "Xalq so'zi". 2017. - 18-noyabr.

To'raev F. Mutribot qalbidan uchgan navolar.-Toshkent. "Navro'z" nashriyoti 2018.- B 248-249.

Mustafoev B.I. "Buxoro shashmaqomi"-ulkan ma'naviy xazina:
http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8210/5223

Mustafayev B.I Milliy maqom san'ati ta'limi va ijrochiligidagi "ustoz-shogird" an'analari. http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12262/7972.

Mustafayev B.I "Buxoro shashmaqomi"-milliy tarbiya vositasi.
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12261/7974.

B. Mustafaev Muzikalno – obrazovatel'naya i prosvetitelskaya deyatel'nost Abdurauf Fitrata:
http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9691/6250

